



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Abduvaliyeva Gulchexra Mamadjon qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Elektron pochta: gulchexraabduvaliyova @gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining modulli ta‘lim asosida o‘qish samaradorligini oshirish, dars davomida zamonaviy interfaol metodlarni amalda qo‘llash.

Kalit so‘zlar: 4K modeli, kreativ, sinkveyn, insert, reproduktiv metod, interfaol metod.

USE OF INTERACTIVE METHODS BASED IN ELEMENTARY READING LESSONS

Abduvaliyeva Gulchexra Mamadjon qizi

Independent researcher

e-mail: gulchexraabduvaliyova @gmail.com

Annotation: In this article, improving the learning efficiency of elementary school students based on moducation, using modern interactive methods in practice during the lesson.

Kerwords: 4K model, creative, syncway, insert, reproductive method, interactive method.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ НАЧАЛЬНОГО ЧТЕНИЯ

Абдувалиева Гулчехра Мамаджон кизи

Независимый исследователь

Эл.почта: gulchexraabduvaliyova @gmail.com

Аннотация: В данной статье повышение эффективности обучения учащихся младших классов на основе модульного обучения, с использованием современных интерактивных методов на практике во время урока.

Ключевые слова: 4К-модель, креатив, раковина, вставка, репродуктивный метод, интерактивный метод.



O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas’uliyat yuklangan. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etadi: «Hurmatli muallimlarimiz, jonkuyar maktab direktorlarini, soha faxriylarini el-yurtimiz tayanchi va suyanchi, deb bilamiz. Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag‘ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog‘liq» deb ishonch bildirganlar.

Prezidentimiz “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu—ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq” deb ta’kidlaganlar. Bunda, yosh avlodga berilgan yaxshi tarbiya va sifatli ta’lim Vatanimizning kelajagini yorug‘ va buyuk bo‘lishini kafolatlaydi.

Zamonaviy jamiyatimiz kundan kunga jadal rivojlanib bormoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu o‘rganilgan har qanday yangi ma’lumotlarni tez paydo bo‘lishiga va bu ma’lumotlar tez orada o‘z ahamiyatini yo‘qotib borishiga olib keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun axborotlarni boshqarish, uni qayta ishlash va uni dars jarayonlarida qo‘llash juda muhimdir. Bunday vaziyatlarda o‘rganilgan ma’lumotlarni yangilash uchun o‘qituvchini ro‘li katta hisoblanadi. An’anaviy dars jarayonlari samarasiz bo‘ladi. Dars jarayonida samarali bo‘lishi uchun o‘quv materiallari va interfaol metodlardan o‘qituvchi foydalanishi zarur.

O‘quvchilarni yangi bilimlarni o‘rganishga undaydigan, oson yodlashga yordam beradigan, yangi g‘oyalarni topishga undaydigan. Bu o‘z navbatida ta’limga yangi vazifalarni qo‘yadi. O‘quv jarayonida maqsadga tez va samarali erishishni ta’minlaydigan interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilarni ta’lim ehtiyojlarini qondira oladigan o‘qish usullarini topish va ulardan darslarda foydalanish kerak bo‘ladi.

Qisqa vaqt ichida o‘quvchilar maksimal darajada bilim ,ko‘nikma, malakaga ega bo‘lish muhimdir. Interfaol ta‘lim usullari shu talablarga javob beradi. O‘quvchilarni bir-biri bilan va o‘qituvchi bilan faol aloqada bo‘lish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi desak adashmaymiz. Interfaol metodlarni qo‘llashda xilma-xilligi har bir o‘quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ularni rag‘batlantirish imkonini beradi.

Interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarni bilim olish faolligini, erishgan yutuqlar darajasini yanada oshiradi.

Boshlang‘ich ta‘lim - ta‘limning poydevori hisoblanadi. 2023-yil 1-4 sinflarning o‘quvchilari yangi darsliklar bilan ta‘minlanib, darslar davomida fanlardan mavzularni o‘rganish bilan bir qatorda darslikdagi rang-barang rasmlar, qiziqarli rebuslar, mantiqiy topshiriqlar hamda loyihalar bilan ishlashni o‘zlashtirmoqda.

2023-yil taqdim etilgan boshlang‘ich sinf darsliklari o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yangilik bo‘ldi. 1-4 sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etilgan. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi: Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi. Darsliklarni ishlab chiqishda bolalar ruhiy holati ham hisobga olinadi. Ularda ijodkorlar va fikrlash qobiliyatini oshirish uchun rasmlar va illyustratsiyalardan keng foydalanilgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola matnlarga nisbatan, tasvirlar orqali ma‘lumotni tezroq qabul qiladi. Shu bois yangi darsliklarni yaratishda matnlar bilan birga, rangtasvirlarga ham alohida e‘tibor qaratildi.

O‘z navbatida ushbu darsliklardan foydalanish jarayonida o‘qituvchi dars davomida kreativ yondashuvni talab etadi. Boshlang‘ich sinf uchun yaratilgan yangi darsliklardan kelib chiqib o‘quvchilarini o‘qish samaradorligini modulli ta‘lim sharoitida oshiruvchi interfaol metodlar qo‘llash darsni yanada qiziqarli bo‘lishini taminlaydi. Interfaol metod – ta‘lim jarayonida o‘quvchilar hamda

o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol ta‘limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta‘lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘zi o‘tayotgan fanning mazmun mohiyatiga qarab turli xildagi interfaol metodlarni tanlashi kerak bo‘ladi. Masalan: **Sinkveyn** metodini oladigan bo‘lsak ona tili, o‘qish, tabiiy fan, tasviriy san‘at kabi fanlarda foydalanilsa darsning samaradorligini oshiradi.

Sinkveyn – *fransuzcha* - “cinquains”, *inlizcha* - “cinquain” so‘zlaridan olingan bo‘lib “5 qator” ma‘nosini bildiradi. **Sinkveyn** - ma‘lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she‘r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqea, mavzu) to‘g‘risidagi axborot yig‘ilgan holda, o‘quvchi so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish -murakkab g‘oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalash uchun muhim bo‘lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Dars jarayonida foydalanilgan interfaol metodlar orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning mavzularni qay darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlab olishi va so‘ngi xulosani birgalikda o‘qituvchi ko‘magida yakunlaniladi.

O‘qish darslarida o‘quvchilardan matnni ongli,ifodali qilib o‘qish talab etiladi.Lekin o‘quvchi matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi ,so‘zlarni ma‘nosini yaxshi anglamasdan tushunmasdan tezlik bilan o‘qib ketish hollari juda ko‘p uchraydi. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchi interfaol metodlardan yana biri **Insert** metodidan foydalansa bo‘ladi. **Insert** metodi tushunishni kuzatish vositasidir.

Insert - bu o‘quv jarayonida o‘z anglashini faol kuzatish uchun o‘quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir. Bu esa odam nima o‘qiyotganini tushunmay, o‘qish jarayonida faol bo‘lishga qatnashmaydigan va o‘z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert - bu matn bilan ishlaganda faollikni qo‘llab - quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O‘quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo‘yib boradi, ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi:

V - bilganlarimni tasdiqlaydi.

+ - yangi axborot.

- - bilganlarimga zid keladi.

? - meni o‘ylantirib qo‘ydi.

Bu interfaol metodning afzalliklari mustaqil o‘qish o‘qigan matnni mazmun va mohiyatini tushunib olish, o‘quvchi uchun yangilik bo‘lgan axbotni bilib olish, avval o‘zlashtirgan bilimlarni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

O‘qish darslarida **reproduktiv metod** keng qo‘llaniladi. Masalan, o‘qituvchi dastlabki darslarda o‘zi asar matnini qismlarga bo‘ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo‘lgan muhim fikriga o‘quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko‘rsatadi, o‘quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma’noni ochib, o‘quvchilarga ko‘maklashadi. Bularning bari o‘quvchilar uchun bir ko‘rsatma vazifasini o‘taydi. Shundan so‘ng o‘quvchilar o‘qituvchining ko‘rsatmalari yordamida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarni o‘zlari mustaqil ravishda bajaradilar.

Suhbat va muhokama. Bu metod o‘quvchilarni o‘qish davomida muhokama qilishga, savollar berishga va fikr bildirishga jalb qiladi. O‘qituvchi matnni o‘qib chiqqach, o‘quvchilar bilan suhbat quradi, ularni matn mazmuni haqida o‘ylashga va o‘z fikrlarini bildirishga undaydi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini bildirgandan so‘ng, matnni o‘qib chiqish so‘raladi. O‘quvchilar matnni o‘qib chiqib o‘zlari bildirgan fikrni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini xullosa chiqarib olishadi.

Rol o‘ynash. O‘quvchilar matn qahramonlari rollarini bajarib, sahna ko‘rinishlarini ijro etadilar. Bu metod o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularga matn mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. O‘qigan matnlari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar va matn qahramonlarini ko‘nglidan o‘tganlarini his etadilar va bu matn yodlarida bir umrga muhirlanadi desak adashmagan bo‘lamiz.

Tasvirlash va chizish. O‘quvchilar matn mazmunini chizilgan suratlar orqali tasvirlaydilar. Bu metod o‘quvchilarning tasavvurini rivojlantiradi va matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu metod o‘qituvchi uchun ham ancha foydali chunki, matnni o‘qishda muammosi bor o‘quvchiga o‘qituvchi matnni o‘qib beradi va o‘quvchi matnni mazmunidan kelib chiqqan holda o‘zi tasavvur qilgan suratni chizadi va qay darajada tushunganini o‘quvchidan suratni tasvirlab berish so‘raladi.

Yuqorida ta’kidlangan metodlardan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan „Aqliy hujum“, „Tarmoqlash“, „Guruhlar bilan ishlash“, „Blis texnologiyasi“, „BBB“ kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Bu metodlar o‘quvchilarning darslarga qiziqishini oshiradi, ularning faol ishtirokini ta’minlaydi va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlardan foydalanish o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Interfaol darslarni tashkil etishda o‘quv jarayonida yakka tartibda,juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o‘yinlar, xujjatlar bilan ishlash, axborot manbalari bilan ishlash,ijodiy ishlardan foydalanish mumkin. Ulardan: juftlikda ishlash;kichik guruhlarda ishlash; akvarium; tugallangan gaplar;broun harakati;daraxt yechimi;o‘z nomimdan so‘zlayman; fuqarolar eshituvi;rolli o‘yinlar;press metod;o‘z pozitsiyasini egallash;munozara;katta davra. Yuqoridagilardan foydalanishda qandaydir bir maqsadni ko‘zda tutib,muammoni



keltirib, o‘quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, uni ma’lum malakalarga ega bo‘lgan holarlarda qollanilsa, kutilgan natijalarni olish mumkin.

O‘quv materiali mazmuni, nimaga o‘rganilishi, tahlili, motivatsiyasi, o‘qituvchi, o‘quvchini ketma-ketligidagi harakatlari ko‘zda tutiladi.

Xulosa qilib shuni aytish joyizki, hozirgi davr shidat bilan davom etmoqda ilim fan deysizmi, san’at, madaniyat sohalarda sezilarli o‘zgarishlar borligi insonni quvontiradi. Bu davr pedagog hodimlari ham shunga munosib ravishda o‘tib borishi kerak. Butun bir millatning kelajagi uning rivojiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan yetuk shaxsni tarbiyalashi lozim. Bunda pedagog qanday fandan dars berishidan qat’iy nazar o‘quvchilarini darslarga bo‘lgan qiziqishlarini so‘ndirmaslik ularni dunyo qarashini shakllantirishda o‘z fikrini mustaqil bayon eta oladigan, mantiqiy fikrlay oladigan qilib ta’lim va tarbiya bermog‘i lozim. O‘qituvchi doimiy ravshda o‘z ustida ishlashi zamon bilan hamnafas bo‘lmog‘i kerak. Bunda darslar davomida interfaol metodlardan foydalanish ta’limning sifatini yanada yaxshilashga hizmat qiladi. O‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqishlarini, darsning samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sobirova M. Development of oral speech competence of students. <http://www.academicpublishers.org/> International journal of artificial intelligence (ISSN: 2692-5206) Volume 04, Issue 03, 2024. Published Date: - 04-06-2024.
2. Uchquduq.uz/matbuot-xizmati/yangiliklar/item/3371-boshlang-ich-sinflarda-yangi-avlod-darsliklari.
3. Sobirova, M. (2023). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7827423>
4. Daryo.uz/2023/10/14/yangi-avlod-darsliklari-boshlang'ich-sinf-darsliklarining-afzallik-vajamoatchilik-etirozlari-haqida-video.



5. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
6. K.Qosimova va boshqalar “Ona tili o’qitish metodikasi” Toshkent, 2009.
7. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.z o.o."iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> стр. 98-105
8. Sobirova, M. (2020). Assimilation of human qualities during the process of working with text. International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science” SOI: 1.1/TAS (<http://t-science.org/arxiv> DOI/2020/12-92.html) (DOI:10.15863/TAS Published: 18.12.2020.
9. Sobirova, M.Y. (2019). About the history of speech culture and art of oratory. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80), 275-277. Retrieved from: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657439>
10. www.pedagog.uz